

2023 yil 29 sentabr kuni Toshkent pediatriya tibbiyot institutida 1 oktabr –“Ustoz va murabbiylar kuni” bayramiga bag‘ishlab “Qalbi daryo ustozim” nomli bayram tadbiri tashkil etildi.

Bayram tadbirida Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor M.A.Axmedova, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i A.Q.Xudayberdiev, xodimlar kasaba uyushmasi raisi A.M.Mannonov, Yoshlar ittifoqi a’zolari, institutning barcha kafedra professor - o‘qituvchilari, xodimlar va talabalar.

Tadbirni o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor K.N.Xaitov ochib berdi, shuningdek Davolash ishlari bo‘yicha prorektor A.A.Djalilov Ustoz va murabbiylar bayrami munosabati bilan barcha professor-o‘qituvchilarini tabrikladi.

Tadbirning badiiy qismi O‘zbekiston Davlat Filarmoniyasi “Navbahor” ansamblı xonandalarining kuy –qo‘shiqlari bilan boshlandi. Yoshlar ittifoqi a’zolari va talabalar teatr studiyasi tomonidan sahna ko‘rinishlari, videoroliklar namoyishi bo‘lib o‘tdi.

Tadbir so‘ngida Xodimlar kasaba uyushmasi raislari A.M.Mannonov, so‘zga chiqib, barcha professor-o‘qituvchilarni bayram bilan qutladilar. Institutning 150 dan ortiq faol professor-o‘qituvchilariga qimmatbaho sovg‘alari tantanali ravishda topshirildi.





